

**O'QUVCHILARNI NUTQINI OSHIRISH VA BOSHLANG'ICH TA'LIMNI
ZAMONAVIY TASHKIL QILISHNING METODIK USULLARI**

Xudayberdiyeva Busalha Umaraliyevna

*Namangan viloyati Mingbuloq tuman 9-umumiy o'rta ta'lim
maktabi boshlang'ich sinf o'qituvchisi*

<https://doi.org/10.5281/zenodo.10048199>

Annotation: this article reflects information on the methodical methods of increasing the speech of students and modern organization of primary education.

Keywords: conversation, educational content, organizational, methodological, psychological, pedagogical conditions, speech, development, methodology, children's attitude to study.

Annotatsiya: Ushbu maqolada o'quvchilarni nutqini oshirish va boshlang'ich ta'limgani zamonaviy tashkil qilishning metodik usullari borasida ma'lumotlar o'z aksini topadi.

Kalit so'zlar: Suhbat, ta'lim mazmuni, tashkiliy, uslubiy, psixologik, pedagogik shart-sharoit, nutq, rivojlantirish, metodika, bolalarning o'qishga munosabatlari.

Ta'limga jarayonida ilg'or pedagogik texnologiyalarni faol qo'llash, ta'limga samaradorligini oshirish, tahlil qilish va amaliyotga joriy etish bugungi kunning muhim vazifalaridan biridir. O'quvchilarning fikr doirasi, ongi, dunyoqarashlarini o'stirish, ularni erkin tinglovchidan erkin ishtirokchiga aylantirmoq nihoyatda muhimdir. O'qituvchi darsda boshqaruvchi o'quvchilar esa, ishtirokchiga aylanmog'i lozim. Ana shu vazifani uddalashda innovatsion faoliyat ustunligi ko'p qirrali samara keltiradi. Boshlang'ich ta'limga umumta'lim maktablarining bosh bo'g'ini bo'lgani sababli ana shu jarayonda o'quvchi shaxsining mukammal rivojlanib borishiga ko'proq e'tibor berish lozim. Boshlang'ich sinf o'qituvchilarining mas'uliyatlari cheksizdir. Ular maktab ostonasiga endigina qadam qo'ygan o'quvchilarni maktab hayotiga ko'niktirib, zamonaviy bilim olishlariga yo'l ochib beradilar. Bolalarning o'qishga munosabatlari, aqliy salohiyatlari ana shu davrda shakllanadi. Bu ham boshlang'ich sinf o'qituvchilarining vazifasi mas'uliyatli ekanligini ko'rsatadi. Pedagogik texnologiyalar asosida tashkil etilgan darslar tashkiliy usullari, o'tkazish metodlariga ko'ra o'quvchi ehtiyojiga mos tushishi kerak. Chunki bunday darslar bola ruhiyatiga yaqinroq bo'ladi. O'quvchilarning o'quv materiallarini o'zlashtirishga bo'lgan qiziqish, xohish va istaklarini qo'zg'otish asosida maqsadga erishish motivatsiya bo'lib, bu o'qituvchi va o'quvchilarning o'zaro ichki yaqinlashuvindir. Ta'limga tizimida innovatsion deyilganda ta'limga maqsadi va mazmuniga yangilik kiritish, yangicha yondashish, pedagog va talabaning hamkorligidagi faoliyatini tashkil etish, pedagogik texnologiyalarni takomillashtirish jarayoni, ta'limga uslub, shakl, va vositalarining majmuasi tushuniladi.

Bolalar nutqini rivojlantirish va uni o'stirish metodi

Bola nutqini rivojlantirish, eng avvalo, til qobilyatini shakllantirishni talab qiluvchi muloqot shakllarini rivojlantiruvchi demakdir (A.A.Leont'ev).

Ilmiy tadqiqotlar va yo'nalishlar tahlili maktabgacha yoshdagi bolalar nutqining turli tomonlarini rivojlantirish xususiyatlari hamda ularning ilmiy adabiyotda o'rganilganlik darajasini aniqlash imkonini beradi.

Barcha tadqiqotchilar bola nutqini va uning rivojlanishini alohida ajratilgan holda emas, balki katta yoshli kishining bolaga pedagogik ta'siri bilan o'zaro bog'liqlikda ko'rib chiqadilar. Ushbu yondashuv o'rinnlidir, zero, fandagi zamonaviy tadqiqotlar nutqni o'zlashtirish va ijtimoiy o'zaro hamkorlik – o'zaro bog'liq jarayonlardir, nutqni rivojlantirish esa – ijodiy jarayon, biroq u stixiyali jarayon emas, degan fikrga asoslanadi.

Inson tajribasining tarixan shakllangan mazmuni so'zli shaklda umumlashtirilgan, uni bayon etish va o'zlashtirish esa ushbu jarayonda nutqning ham ishtirok etishini nazarda tutadi. Nutq bolaga inson madaniyatining barcha yutuqlariga yo'll ochadi. Umuman, shaxsning va barcha asosiy psixik jarayonlar (qabul qilish, fikrlash va boshq.) ning shakllanishi ham bolada nutqning rivojlanishi bilan bog'liqidir.

Bolaning psixik jihatdan shakllanishida nutqning alohida o'rin tutishi uning turli bosqichlarda rivojlanishiga yordam beruvchi shart-sharoitlar va omillarni bilishni juda muhim qilib qo'yadi. Nutqning rivojlanishi bilan harakatlanuvchi kuchlar haqidagi masala shiddat bilan sakrash tarzida ro'y berishi tufayli ham, muhim ahamiyat kasb etadi.

Bolalarda nutq rivojlanishini rag'batlantiruvchi yoki unga to'sqinlik qiluvchi kuchlarni aniqlash ushbu jarayonga aniq maqsadni ko'zlagan holda pedagogik ta'sir ko'rsatishni tashkil etish kalitidir.

V.I.Loginova, Y.S.Lyaxovskaya, V.V.Gerbova, Ye.M.Strunina va boshqalarning tadqiqotlarida bolalar ona tili leksikasini o'zlashtirib olishlarining o'ziga xos xususiyatlari yoritilgan.

Maktabgacha yoshdagi bolalarning lug'atni o'zlashtirishlarida ikki jihat ajratib ko'rsatilgan: atrofdagi olam lug'atini (so'z boyligini) anglash bilan birgalikda rivojlantirish; lug'atni til birligi sifatida o'zlashtirish. Ular predmetli aloqalar va munosabatlar mantig'ida ham, til mantig'i borasida ham so'z ustida ishslash zarurligini isbotlab berishgan.

Nutqni egallab olishning eng muhim bosqichlari maktabgacha yoshga to'g'ri keladi. Shundan kelib chiqqan holda, hozirgi paytda nutqni rivojlantirishdagi ayrim bosqichlarni o'rganishga alohida e'tibor qaratilmoqda. Olimlar nutqqacha bo'lgan bosqich muhim rol o'ynashini tushunib yetib, uni batafsil tahlil qilmoqdalar.

Bolalar nutqining grammatic tuzilishi sohasidagi tadqiqotlar bolalarda nutqning morfologik va sintaktik tomonlarini shakllantirish (F.A.Soxin, M.I.Popova, A.V.Zaxarova, V.I.Yadeshko, A.G.Tambovseva va boshq.), ona tilining so'z hosil qilish tizimi xususiyatlarini aniqlash, shuningdek, bolalar nutqining grammatic tuzilishini takomillashtirishga oid pedagogik ishda nafaqat odatdagagi grammatic xatoliklarni o'rganish va tuzatishga, balki birinchi navbatda grammatic umumlashmalarni shakllantirishga e'tiborni qaratish zarurligini isbotlash imkonini berdi.

Nutqiy rivojlanish jarayonini A.N.Leontev quyidagicha tavsiflaydi: Nutqni «rivojlanirish jarayoni bola lug‘atining va so‘zlarining assotsiatsiya asosida bog‘lanishining ortishida ifodalanadigan miqdoriy o‘zgarishlar jarayoni emas, balki sifat jihatidan o‘zgarish jarayonidir, zero, u fikrlash va ong rivojlanishi bilan ichki bog‘langan holda so‘zning barcha funksiyalari, tomonlari va aloqalarini qamrab oladigan haqiqiy rivojlanish jarayonidir»

Nutq ontogenezi haqidagi zamonaviy tasavvurda bola nutqini rivojlanirish, bir tomondan, tashqi ta’sirlar bilan belgilanishi, o‘zga tomondan esa – to‘satdan yuz berishlik, «o‘zini-o‘zi harakatga keltirish» bilan tavsiflanishi tushuniladi. Bolalarning passiv nutqni o‘zlashtirib olishlari va ularning dastlabki so‘zni aytishlari hal qiluvchi darajada quydagi uch jihatga, ya’ni emotsiyal aloqalar, birgalikdagi harakat chog‘idagi aloqalar, tovushli aloqalardan iborat bo‘lgan kommunikativ omilga bog‘liq bo‘ladi.

Bolalarni dialogik nutqqa o‘rgatish muammolari.

Dialogik nutq ikki va undan ortiq kishilar o‘rtasida amalga oshiriladi. Nutqning bu ko‘rinishi o‘ziga xos xususiyatlarga ega, bu nutq keng jumlalarni talab etmaydi. Shuning uchun dialogik nutq tarkibida to‘liqsiz gaplar juda ko‘p bo‘ladi. Bunday nutq tarkibida so‘roq va undov gaplar ham uchraydi.

Dialogik nutqning mazmuni va vazifalari:

Dialog – suhbat bolaning kattalar va o‘z tengdoshlari bilan muloqotining asosiy shakli hisoblanadi

Bolalar bog‘chasida o‘qitish ikki shaklda amalga oshiriladi:

- a) erkin nutqiy muloqot
- b) maxsus mashg‘ulotlarda

Dialog ko‘proq erkin nutqiy muloqotda paydo bo‘ladi va u bolalar lug‘atini boyitishning talaffuzga oid grammatik ko‘nikmalarini tabiiy ravishda rivojlanirish, ravon nutq ko‘nikmalariga ega bo‘lish bazasi hisoblanadi. Dialog maxsus mashg‘ulotlarda o‘qitiladi (oyiga 1–2 ta mashg‘ulot); Bolalar bog‘chasida bo‘lib turgan vaqt mobaynida bola erkin muloqotda pedagog va boshqa bolalar bilan muloqotga kirishadi. Uyda esa kattalar bola bilan turli mavzularda dialogga kirishishlari lozim. Dialogik nutqni (yoki og‘zaki nutqni) o‘rgatish odatda suhbat shaklida, ya’ni kattalar bilan bola o‘rtasida hamda bolalarning o‘zları o‘rtasida fikr almashish shaklida ro‘y beradi.

Dialogik ravon nutqni rivojlanirishga doir maxsus mashg‘ulotlar suhbat metodi (suhbat) va imitatsiya metodi asosida o‘tkaziladi. Mazkur metodlar ko‘pincha quydagi usullar yordamida amalga oshiriladi:

Tayyorgarlik suhbati (so‘zlashish) usullari; Teatrlashtirish usullari (imitatsiya, qayta aytib berish).

Bolalarga dialogik nutqni o‘rgatish usullari.

Dialogga bo‘lgan ehtiyoj, predmetli harakatlarni o‘zlashtirish bolaning o‘z faol nutqini ham talab qiladi. Nutq asosida umumlashtirishlar, fikrlashning ramziy vazifasi, ya’ni real narsalarning o‘rnini almashtira olish hamda o‘rnini bosuvchi narsalar va til belgilari bilan amallar bajarish qobiliyatları rivojlanadi. Biroq nutqqacha predmetli harakatlarni aynan bir narsa bilan turli harakatlarni yoki turli narsalar bilan aynan bir xil harakatni bajarish, juftlik o‘yinlarni rivojlanirish va umumlashtirishga oid uzoq yo‘lni

bosib o'tishga to'g'ri keladi.

Bola uchun katta yoshli odam – bitmas-tuganmas ijobiy emotsiyalar, qiziqarli taassurotlar va borgan sayin so‘z muhim ahamiyatga ega bo‘lib boradigan o‘yinlar manbai hisoblanadi. Kattalar bilan dialogga kirishish, narsalar va o‘yinochqlarga egalik qilishga intilarkan, bola ushbu maqsadlarga erishish uchun so‘zdan foydalanish haqidagi chaqiriqqa javob beradi, ba’zida o‘zi tashabbus ko‘rsatib, fikr bildiradi. Katta yoshli odam bola bilan dialogga kirishadi, bolaning bir so‘zli fikrlarini grammatik jihatdan to‘liq shakllantirilgan iboraga aylanatirish orqali uning kamchiliklarini «tuzatadi» (Temur dadasingin mashinasini ko‘rib qoldi: «Bi-bi, dada». Ona: «Dadasining mashinasi. Ketdik, dadaga boramiz»).

Bola tilni faol o‘zlashtiradi. So‘z ortida turgan tasavvur yagona o‘xshashlikdan («lyalya» - katta va kichik qo‘g‘irchoq) ko‘proq o‘xshatishlargacha, keyinroq esa nisbatan aniq umumlashtirmalargacha («mol» so‘zidan sigir, qo‘y, echki va ot-eshaklarni ifodalashda foydalanishdan boshlab keyinchalik «mol» so‘zini faqat sigir va buzoqchalarga nisbatan qo‘llashgacha) rivojlanadi. Ayni bitta so‘z yordamida ko‘p obrazli munosabatlar ifodalanadi («nanna» so‘zi bir vaqtning o‘zida «bu non», «non bering», «non tushib ketdi» kabi ma’nolarni anglatishi mumkin va h.k.). Bola asta-sekin bu munosabatlarni grammatik jihatdan rasmiylashtirilmagan ikki so‘zli, keyinroq esa uch so‘zli gaplar orqali ifodalashni o‘rganadi. Ikkinci yilning oxiriga kelib, dastlabki grammatik shakllar paydo bo‘ladi. Bola- ning so‘z zaxirasi ortadi. 1 yoshu 6 oyda uning so‘z zaxirasi 30–40 ta so‘zni tashkil qilishi lozim. Fikrlar asosan bir tarkibli gaplardan iborat bo‘ladi. Bunda nonutqiy dialog vositalari (ifodali harakat, bevosita namoyish qilish, ko‘zlarning to‘qnashuvi, mimikalar, imo-ishoralar va boshq) hamon hukmron bo‘ladi. Bola maishiy vaziyatlar ma’nosini va ularda qo‘llanilayotgan nutq mazmunini tushunib yetadi.

Darslarni zamonaviy tashkil etish

Ta’lim sohasiga doir davlat hujjatlarida o’quv-tarbiya jarayoniga ilg’or pedagogik texnologiyalarni joriy etish, o’qitishning zamonaviy, interfaol usullarini qo‘llash orqali ta’lim sifati va samaradorligini oshirishga alohida e’tibor qaratilgan. Umuman olganda, bu iboraning leksikologiyamizga kirib kelganiga ham bir necha yillar bo‘ldi. Shu o’rinda pedagogik texnologiyaning mazmuni nima? Tushunchaning pedagogik va umuman ta’limning ilmiy jarayoniga qanday aloqasi bor? – degan, savol tug’ilishi tabiiy hol.

Bu savolga Ch.E.Mirzayev quyidagicha javob beradi: “Ta’limga texnologik yondashuv – ta’lim mazmunini har tomonlama tahlil qilish orqali ta’lim- tarbiya jarayonining umumiyligi (ta’limiy, tarbiyaviy, rivojlantiruvchi) va xususiy (muayyan fanlarning mazmunini o‘zlashtirish bilan bog’liq) maqsadlarini tahlil qilish, o’qituvchi va o’quvchi maqsadlari uchrashgan nuqtalarda (identiv o’quv maqsadlari) ta’limning didaktik maqsadlarini aniqlash yo‘li bilan ta’limni kompleks loyihalash, ilmiy asoslangan loyihiaga ko’ra ko’zlangan natijaga kafolatlangan erishishdir”

To’g’ri, ta’lim texnologiyasida o’quv-tarbiya jarayonini metodik ta’minlashga katta imkoniyatlar bor. Pedagogik texnologiyalarni qo‘llash o’qituvchilarning metodik mahoratini oshirish masalasining bir tomoni xolos. Keng ma’noda esa o’quv –

jarayonining yaxlit tarzda, mazmunli amalgal oshirish texnikasi, uning pirovard natijalari samaradorligini belgilovchi omil, o'qituvchi kadrlar mahoratiga, samarali mehnat qilishga yetaklovchi yo'ldir.

Ch.R.Choriyev fikricha, o'qituvchi mahoratiga to'rt yo'l bilan erishiladi:

Birinchidan, ijodkorlik, izlanish, o'z faoliyatini tahlil qilish, qiyoslash, yo'l qo'ygan uslubiy kamchiliklarni tanqidiy baholab, ularni bartaraf etish, o'z ish faoliyatini yanada takomillashtirish ustida tinimsiz ishlash, pirovard natijada o'z faoliyatining mukammal, o'ziga xos shakl va uslubini belgilab olish.

Ikkinchidan, ilg'or hamkasblari ish- tajribalarini qunt bilan o'rganish, o'z sharoiti va imkoniyatidan kelib chiqib, ularni amaliyotga tatbiq etish va takomillashtirib borish.

Uchinchidan, xorijiy pedagogik tajribalarni ijodiy o'rganish.

To'rtinchidan, respublikamizda va xorijiy mamlakatlarda chop etilayotgan pedagogik texnologiyalar va metodik yangiliklarni uzlusiz tarzda kuzatib borish. Hozirgi zamon ta'limida bu to'rt omilni sidqidildan bajarmay turib o'qituvchi o'z faoliyatida arzigulik yutuqlarga erishmog'i amri mahol. Shu boisdan ham keyingi yillarda vazirlik tomonidan o'qituvchining ham ilmiy, ham metodik, ham ta'lim texnologiyasi talablarini o'rganib olishlariga yordamlashish maqsadida bir qator amaliy ishlar qilinmoqda.

Bugungi kunda xalq ta'limi vazirligining bevosita mutaxassisligidagi ilmiy-uslubiy jurnal, gazetalar pedagog xodimlarga ilg'or pedagogik texnologiyalar mohiyatini tushuntirish bo'yicha seminar- treninglar o'tkazilmoqda. Bunday seminar-treninglar respublikamizning barcha viloyat va shaharlarida muntazam o'tkazilib kelinmoqda.

Ta'lim mazmunidagi uzlusizlikni ta'minlash ta'limning maqsad, mazmun, metod, vosita, shakl va uning jarayonlari kabi tarkibiy qismlari orasidagi uzviylikka bog'liq. Chunki, ta'limda har bir fanni o'rganish maqsadi (nima uchun o'qitish kerak?) dan kelib chiquvchi o'quv dasturi va DTS talablariga mos o'quv mazmuni tanlanadi. Ta'lim mazmunini (nimani o'qitish kerak?) o'zlashtirish uchun esa qulay bo'lgan metodlar tanlanadi.

Tanlangan metodlar (kimni va qanday o'qitish yordamida mazmun egallanadi. So'ngra ta'lim uchun tayyorlangan vositalar (ko'rgazmali va texnik vositalar) va ta'lim jarayoni, unga etarli darajada mos ravishda mashg'ulot shakli tanlanadi.

An'anaviy metodikada o'quvchi shaxsi rivojlanishini hisobga olgan holda, uning bilimini ko'nikmaga, undan esa malakagacha rivojlanishini ta'minlovchi mexanizm yaratilmagan. O'qituvchi o'quvchiga asosan axborot beruvchi manba hisoblanadi, ya'ni bilim olishda: axborotlarni toplash va qayta ishlash: o'rganilgan axborotlarni amalda qo'llash bilishning 3ta bosqichdan iborat modeliga rioya qilavermaydi. Dars jarayonida olingan bilim keyingi pog'onaga, ya'ni faollashuv pog'onasiga ko'tarilmaydi. An'anaviy metodikada yaratilgan juda ko'p tavsiya va nazariyalar shu boisdan ta'limda amalda qo'llanilmaydi yoki qo'llashga noqulay.

Shu boisdan ta'limda yuzakichilikka yo'l qo'yiladi. Ta'lim jarayonida maqsad, mazmun, metod, vosita va shakl orasida ziddiyatlar esa ta'lim samaradorligiga erishishda asosiy to'siq bo'Imoqda.

Xo'sh, ta'lim jarayoni oldiga qo'yilgan maqsadga to'laqonli erishish uchun avvalambor, nimalarni e'tibordan chetda qoldirmasligimiz darkor? Bu savolga javobni izlashda biz

R. Mavlonovaning bu boradagi fikrlarini keltirishni joiz deb bildik: Respublikamizda ta'lif jarayonini samarali tashkil etish masalasi bo'yicha izlanishda o'qitishning yangi usullari asta - sekin mustahkam o'rin olmoqda. Bunday usullarga muammoli vaziyatni tashkil etish, guruhlar bilan ishlash kabi usularni kiritishimiz mumkin. Lekin, o'qitishning yangi usullari asosan maktabning yuqori sinflarida samarali qo'llanib kelinmoqda. Xo'sh, boshlang'ich ta'lifda nimalar bo'layotir?

Boshlang'ich maktab har qanday holda ham o'quvchilarda bilimlarni shakllantirishda va ularning qobiliyatlarini aniqlashda asosiy rol o'ynaydi va undan keyin ham shunday bo'lishi kerak. Ammo, boshlang'ich maktabdagagi barcha o'qituvchilar bolalarning qobiliyatlarini aniqlash va rivojlantirish uchun tegishli ishlarni amalgalash oshirayotirmi? Masalan, nima uchun yuqori sinflarda "a'lo" bahoga o'zlashtiradigan bolalar soni kamayib bormoqda? Maktabni bitta yoki ikkita o'quvchi oltin medal bilan bitirishini qanday tushunish kerak? Iste'dodli, qobiliyatli bolalar yo'qmi yoki o'qitish jarayoni shunchalik samarasiz bo'lib qolganmi? Bularning sababi nima? Sababi ko'p: Birinchidan, boshlang'ich sinf o'qituvchisi bolalar bilan induvidal ish olib borish imkoniyati cheklangan. Sinflarda bo'sh o'zlashtiradigan o'quvchilarga alohida e'tibor berish zarur. Ikkinchidan, mazkur o'qituvchilarning metodik saviyasi etarli emas. Sinfdagagi umumiy ishlarni jarayonida qobiliyatli bolalarning ijodiy imkoniyatlari cheklanib qolmoqda. Ular o'z qobiliyatlarini ko'rsata olmayotir. O'qituvchi kuchi va e'tibori butun sinfga qaratilib, qobiliyatli bolalar ko'zga tashlanmayotir. Umumiy aytganda, xususan bolalarni saralash va o'qitishga boshqacha yondashish bilan ularning ijodiy qobiliyatlarini ro'yobga chiqarish kerak». Ana'anaviy dars o'tish jarayonida ko'proq ma'ruza, savol-javob, amaliy mashq kabi metodlar foydalaniladi. Shu sababli bu hollarda an'anaviy dars samaradorligi ancha past bo'lib, o'quvchilar ta'lif jarayoning passiv ishtirokchisiga aylanib qoladilar. Bolalarda betinim jiddiy dars beraverish, ustma-ust nazariy bilimlar, qoidalar bilan qurollantiraverish ularni o'qishdan bezdirib qo'yadi. Kichik maktab yoshidagi bolalarida bunday hol ko'p uchraydi.

Buning oldini olish uchun nima qilish kerak? An'anaviy dars shaklini saqlab qolgan holda dars jarayoni oqilona tashkil etilishi, o'qituvchi tomonidan o'quvchilarining bilim olishga bo'lgan qiziqishlarini orttirib, ularning ta'lif jarayonida faolligi muttasil rivojlantirilib turilishi, o'quv mavzuni kichik-kichik bo'laklarga bo'lib ularning mazmunini ochishda babs munozara, aqliy hujum, kichik guruhlarda ishslash, rolli o'yinlar metodlarini qo'llash, rang-barang qiziqtiruvchi misollar keltirish, o'quvchilarni amaliy mashg'ulotlarni mustaqil bajarishga undash, har xil baholash usullari va ta'lif vositalaridan joyida va o'z vaqtida foydalanish talab etiladi. TexnologIk yondashuvning eng avvalo yuzakichilikka emas, balki rejalashtirilgan natijani amalgalash oshirish imkonini beruvchi samarali yondashuv ekanligini anglagan o'qituvchilar uni o'z faoliyatlariga tadbiq etmoqdalar. Jumladan, oliy toifali o'qituvchi H.Rahmatullaeva ilg'or pedagogik texnologiyalarning afzalligi haqida shunday deydi: «O'qitishning ilg'or pedagogik texnologiyalarini ta'lif jarayoniga tadbiq etayotganligim bois o'quvchilarning dars o'zlashtirishi sifati oshib bormoqda. Bolalarda erkin fikrash, o'z fikrini mustaqil bayon etib berish, ko'proq bilishga intilishi ortmoqda, ular xotirasida o'tilgan mavzular ko'proq saqlanib qolishga erishmoqdaman».

Respublikamizda PIRLS tadqiqoti.

PIRLS, yosh o'quvchilar tomonidan mактабда va мактабдан tashqarida ta'lим olishning katta qismini tashkil etuvchi, ya'ni badiiy tajriba orttirish, ma'lumot olish va undan foydalanish ko'nikmalarini baholash kabi ikkita keng qamrovli maqsadlarni ifodalaydi. Yana shuni aytish mumkinki, ushbu dastur zamon bilan hamnafas qadam tashlaydi hamda o'zining baholash mezonlarini zamonaviy talablarga muvofiq ravishda takomillashtirib boradi. Bunga misol sifatida, 2021-yilda o'tkaziladigan tadqiqotda o'quvchilarga birinchi marta raqamli formatdagi topshiriqlarni taqdim etishni rejalashtirganini aytish o'rinnlidir. Raqamli formatga o'tish bilan birga, internet muhitida boshqariladigan ePIRLS onlayn o'qishni kompyuterda baholash kabi o'zgarishlar ham ko'zda tutilgan. O'zbekiston Respublikasi VM ning 2018-yil 8-dekabrdagi "Xalq ta'limi tizimida ta'lim sifatini baholash sohasidagi xalqaro tadqiqtchlarni tashkil etish choratadbirlari to'g'risida" gi 997-sonli qarori bilan O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Ta'lim sifatini nazorat qilish davlat inspeksiysi qoshida "Ta'lim sifatini baholash bo'yicha xalqaro tadqiqtchlarni amalga oshirish Milliy markazi" tashkil etildi. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 29-apreldagi «O'zbekiston Respublikasi Xalq ta'limi tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida»gi PF-5712-son Farmonida 2030-yilga kelib PISA xalqaro dasturi reytingida jahonning birinchi 30 ta ilg'or mamlakatlari qatoriga kirishiga erishish hamda xalq ta'limi tizimida ta'lim sifatini baholash sohasidagi xalqaro tadqiqtchlarni tashkil etish asosida o'quvchilarning o'qish, matematika va tabiiy yo'nalishdagi fanlardan savodxonlik darajasini baholashga yo'naltirilgan ta'lim sifatini baholashning milliy tizimini yaratish vazifalari belgilangan.

Adabiyotlar

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M.Mirziyoyevning 2017-yil fevraldagi "O'zbekiston Respublikasini rivojlantirish bo'yicha Harakatlar strategiyasi to'g'risida"gi PF-4947-son Farmoni
2. O'zbekiston Respublikasining:"Yoshlarga oid davlat siyosati to'g'risida"gi qonuni. "Xalq so'zi" gazetasi. 2016-yil 15-sentabr. 132(6826)-son
3. Boshlang'ich sinflarning takomillashtirilgan o'quv dasturi. Boshlang'ich ta'lim.2017, 5-son, 38-bet.
4. Abdullayeva Q. Yangi pedagogik texnologiyalar. Boshlang'ich ta'lim. "O'qituvchi", 1998,4-son, 16-21-betlar.